

UDC: 342.4+343.116(045)(575.1)

JINOYAT ISHLARINI YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA QAYTA KO'RISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Kuchkarov Xayrulla Zikirillayevich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası professori,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

ORCID: 0000-0001-5251-1441

e-mail: xayrullakuchkarov1@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qonunchilik normalari, ilmiy fikr va mulohazalarning ilmiy tahlili amalga oshirilgan hamda sud qarorlarini qayta ko'rish institutini qo'llash amaliyoti o'rganilgan. Jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlari, jumladan, apellyatsiya va kassatsiya tartibida qayta ko'rishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tizimli tadqiq etilgan. Yuqori instansiya sudlarida jinoyat ishlarini qayta ko'rib chiqish institutining ahamiyati va mohiyati borasida aniq tushunchalar, jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rish asoslari, protsessual vositalaridan foydalanish vakolatlariga ega bo'lgan subyektlar, yuqori instansiya sudlarida qonuniy kuchga kirmagan va kirgan hukm, ajrim va qarorlarni qayta ko'rishning protsessual tartibi, yuqori instansiya sudlarining qarorlari hamda ularning vakolatlari bilan bog'liq bo'lgan bir qator huquqiy masalalar yoritib o'tilgan. Maqolada amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ahamiyati hamda mazmuni tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda boshqa qonun va normativ-huquqiy hujjatlar, turli tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sud qarorlari, apellyatsiya, odil sudlov, kassatsiya, yuqori instansiya sudi, shikoyat, protest, iltimosnoma.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПОВТОРНОГО РАССМОТРЕНИЯ УГОЛОВНЫХ ДЕЛ В СУДАХ ВЫШЕСТОЯЩЕЙ ИНСТАНЦИИ

Кучкаров Хайрулла Зикириллаевич,доктор философии по юридическим наукам (PhD),
профессор кафедры «Уголовно-правовые науки»

Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. В статье проведен научный анализ норм законодательства, а также мнений ученых и правоприменительной практики по пересмотру судебных решений. Рассмотрена система конституционно-правовых основ пересмотра уголовных дел судами вышестоящих инстанций, включая апелляционный и кассационный порядки. На основе научного анализа Конституции Республики Узбекистан, уголовно-процессуального кодекса и других законодательных и нормативно-правовых актов, а также мнений различных исследователей выработаны выводы и предложения по совершенствованию института пересмотра уголовных дел в судах вышестоящих инстанций. Вместе с тем рассмотрены вопросы значения и характера данного института; основания пересмотра уголовных дел в судах вышестоящих инстанций;

субъекты, наделенные полномочиями по применению процессуальных средств; процессуальный порядок пересмотра приговоров, определений и решений, не вступивших в законную силу и вступивших в законную силу в судах вышестоящих инстанций; положения, относящиеся к решениям судов вышестоящих инстанций и их компетенциям. Также проанализированы значение и содержание внесенных в уголовно-процессуальное законодательство изменений и дополнений.

Ключевые слова: судебные решения, апелляция, правосудие, кассация, суд высшей инстанции, жалоба, протест, ходатайство.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL BASES FOR THE RETRIAL OF CRIMINAL CASES IN SUPERIOR COURTS

Kuchkarov Khairulla Zikirillaevich,

Department of "Criminal and Legal Sciences",
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan,
Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article provides a scientific analysis of the norms of legislation, as well as the opinions of scientists and the study of law enforcement practice on the revision of court decisions. The system of constitutional and legal bases for the review of criminal cases by courts of higher instances, including the appeal and cassation procedure, is considered. Based on the scientific analysis of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Code of Criminal Procedure, and other legislative and regulatory acts, as well as the opinions of various researchers, conclusions, and proposals have been developed to improve the institution of reviewing criminal cases in higher courts. At the same time, questions of the significance and nature of this institution are considered; grounds for review of criminal cases in higher courts; subjects empowered to apply procedural means; the procedure for reviewing sentences, rulings, and decisions that have not entered into force and have entered into force in higher courts; provisions relating to decisions of higher courts and their competences. The meaning and content of the amendments and additions made to the criminal procedural legislation are also analyzed.

Keywords: court decisions, appeal, justice, cassation, supreme court, complaint, protest, petition.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida sudlarning odil sudlov vazifalarini bajarishi ularni qonuniy, asoslangan va adolatli faoliyat olib borishi bilan izohlanadi. Sud tomonidan chiqariladigan hukm, ajrim va qarorlar qonunga to'la mos kelishi odil sudlovni amalga oshirishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu protsessual holat orqaligina fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali va puxta himoya qilish ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonida yettita ustuvor yo'nalishdan biri bo'lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvor-

ligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishida "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash" ko'rsatib o'tilgan.

Material va metodlar

Jinoyat protsessida hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asoslantirilganligi va adolatlilikini tekshirishning asosiy usullaridan biri ularning yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rib chiqilishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xat-

ti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi bois fuqarolarning hukm, ajrim va qarorlar ustidan apellyatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat bildirish huquqi ham ularning konstitutsiyaviy huquqi sanaladi.

Tadqiqot ishida mazkur asosni qo'llash bilan bog'liq amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan, shu bilan birga, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish, umumlash-tirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari

Amaldagi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida apellyatsiya, kassatsiya instansiya sudlarida ish yuritishda sud hukmi, ajrimi, qarori ustidan shikoyat va protest kiritish huquqiga ega shaxslar hamda yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish, iltimosnoma berish va protest kiritish huquqiga ega bo'lgan subyektlar belgilab qo'yilgan. Mazkur subyektlar jinoyat protsessi subyektlari hisoblanadi. Shu o'rinda yuqori instansiya sudlarida ish yuritish tartibi (apellyatsiya, kassatsiya, kassatsiya tartibida takroran ko'rish, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish) va o'ziga xos xususiyatlari hamda mazkur institutda murojaat qiluvchi shaxslarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari-ning hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatligini tekshirish shakli, tuzilishi, ish yuritish mexanizmi va mazmuni deyarli bir xil. Shikoyatlarni qabul qilish, shikoyatga qo'yilgan talablar, protest kiritish majburiyati, ish ko'rish tartibi, yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf qilish va chiqariladigan qarorlarning mazmuni shular jumlasidandir. Hukmni bekor qilish yoki o'zgartirish asoslarining yagonaligi ham ularning o'ziga xos xususiyatidir.

JPKning 497²-moddasida apellyatsiya tartibida mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat bersa, prokuror va

uning o'rinbosari protestiga binoan amalga oshirilsa, sudning hukmi, ajrimi ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish)ga bo'lgan huquq JPKning 499-moddasiga ko'rsatilgan shaxslarga tegishli bo'lsa, 509¹²-moddasiga muvofiq, kassatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ular o'rinbosarlarining ushbu kodeksning 497¹⁹-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra kiritgan kassatsiya protesti bo'yicha kassatsiya tartibida takroran ko'radi. Shuningdek, mazkur kodeksning 524-moddasida mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi hamda uning vakili kassatsiya instansiyasi sudiga yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risida iltimosnoma berish hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar protest berishga haqli ekanligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 17-moddasiga muvofiq, taraflar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Shikoyat hamda protest xususida bir qator fikrlar keltirib o'tilgan. Jumladan, ayrim manbalarda yozilishicha, shikoyat – bu qaysidir organ yoki mansabdor shaxsning qarori yoki harakatlari bilan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazilganda, o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini tiklash talabi ko'rsatilgan murojaatdir [1, 167-b.].

Boshqa yuridik adabiyotlarda shikoyat – fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaati [2, 412-b.], degan fikrni uchratish mumkin.

Bizning fikrimizcha, shikoyat – fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari

buzilgan fakti va uning qonuniy tarzda tiklanishi haqidagi talabi (da'vosi)dir.

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonuni 38-moddasida qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan yoki yuqori turuvchi organga keltiradi. Mansabdor shaxsning noqonuniy qaroriga nisbatan ham xuddi shunday tartibda protest keltiriladi.

O'quv lug'atlarda protest – norozilik, qat'iy qarshilik, e'tiroz [3, 191-b.] degan ma'noda berilgan.

Yuridik ensiklopediyada protest – yangilanish, yangitdan vujudga kelish, amrnom, qonunchilik buzilishining oldini olishni ta'minlovchi faoliyat [4, 371-b.], degan ta'rif keltirilgan.

Yana bir boshqa manbalarda yozilishicha, protest – qonunga zid bo'lgan hujjatga nisbatan protestni prokuror ana shu hujjatni qabul qilgan yoki yuqori turuvchi organga keltiradi [1, 282-b.].

Bizning fikrimizcha, protest – bu qonunga zid bo'lgan sud qarorlariga nisbatan tegishli vakolatga ega mansabdor shaxs (sud raisi, prokuror) tomonidan xuddi shu sud yoki yuqori instansiya sudiga kiritiladigan yozma talabdir.

B.X. Po'latovning tahlil qilishicha, Jinoyat-protsessual kodeksining 409-modda 7-qismiga ko'ra, "prokuror jinoyat ishlarini ko'rish yoki hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalar yoxud ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda boshqa masalalarni hal etishda apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudida ishtirok etadi". 473-moddaning 4-qismida esa "raislik qiluvchi sudlanuvchi va boshqa taraflarga hukmning mazmuni, hukm ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish muddati va tartibini tushuntirish"ni ko'zda tutishi qayd etilgan. Shunday ekan, kassatsiya instansiyasi boshqa instansiyaning o'rnini to'laligicha qoplamaydi va o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega [5, 40-b.].

U.A. Tuxtasheva va D.D. Vahobovlarning yozishicha, Jinoyat-protsessual kodeksida apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarining vakolatlari mazmuni bir-biriga juda yaqin. Ular asosan apellyatsiya instansiyasi sudi qonuniy kuchga kirmagan sud qarorlari ustidan berilgan shikoyat va kiritilgan protestlarni ko'rib chiqishi, kassatsiya instansiya sudi esa qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari ustidan berilgan shikoyat va kiritilgan protestlarni ko'rib chiqishi bilan farqlanadi [6, 20–24-b.].

Bizningcha, qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga protest kiritish huquqi berilgan rahbarlar sud emaski, shu sababli ular mustaqil bo'lishi mumkin emas.

Qonunda protest kiritish vakolati berilgan mansabdorlar qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini kassatsiya tartibida takroran ko'rib chiqishni so'rab, protest keltirsalargina bu protestni ish bilan birga ko'rib chiqadigan butunlay boshqa sud paydo bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud raisi, Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini tumanda ko'rilayotgan aniq bir ish uchun sud deb tushunmaslik kerak. Bu shaxslar mas'ul mansabdorlardir.

Huquqni qo'llash amaliyotida ko'pincha mahkumning ahvolini og'irlashtirish maqsadida jazoning yengil tayinlanganligi, uning yetkazilgan zararga nisbatan adolatsiz bo'lganligi vaji bilan shikoyat beriladi. Biroq JPKning 500-moddasiga muvofiq, sud jinoyat ishini kassatsiya tartibida ko'rib chiqish chog'ida jazoni kuchaytirish, xuddi shuningdek, og'irroq jinoyatga doir qonunni qo'llashga haqli emasligi sababli bunday shikoyat qanoatlantirilmaydi.

Demak, bu o'rinda jabrlanuvchi erishishi mumkin bo'lgan holat faqat hukmni bekor qilib, ishni yangitdan sudga ko'rish hisoblanadi. Bu borada N.N. Kovtun haqli ravishda ta'kidlaganidek, ish sudlanuvchi uchun yomon tarafga o'zgarishi, ya'ni unga nisbatan jazoni kuchaytirish yoki og'irroq jinoyatga doir moddalarni qo'llash mumkin emasligi

bois ilgari qabul qilingan qarorlardan norozi bo'lgan jabrlanuvchi qanday nazorat talabi bilan sudga murojaat qilishi mumkinligi aniq emas. Xuddi shunday jabrlanuvchini shikoyat berishga haqli bo'lgan subyektlar qatoriga qo'shishda qonun chiqaruvchi tomonidan qanday tasavvur bilan yondashilgani ham noma'lum [7, 653-b.].

Kassatsiya tartibida ishni qayta ko'rishda mahkumning ahvolini og'irlashtirishga yo'l qo'yilmasligi haqida qoida mavjud bo'lsa-da, jabrlanuvchi tomonidan berilgan shikoyat bo'yicha oqlov hukmi ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bu o'rinda jabrlanuvchi oqlov hukmi asosi yuzasidan shikoyat beradi.

B. Po'latovning yozishicha, sudning asossiz hukm, ajrim va qarorlari, avvalo, prokurorning apellyatsiya, kassatsiya protestlari orqali tuzatilib, qonunga moslashtirilishiga erishish lozim. Buning uchun prokurorlar sud muhokamasiga puxta tayyorlanishlari, sud tergovida faol ishtirok etib, fikr berishlari, sud qarorlarining asosiligi va qonuniyligini o'z vaqtida mukammal o'rganib, qunt bilan tekshirishlari, aniqlangan qonun buzilish holatlarini bartaraf etish choralarini ko'rishlari zarur [8, 58-b.].

Hukm, ajrim yoki qarorni qonunga xilof va asossiz deb topgan tegishli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hamda uning o'rinbosarlari protest kiritadilar va ishni shu protest bilan birga tegishli kassatsiya instansiyasi sudiga yuboradilar. Ishga doir boshqa materiallar protestga ilova qilinadi. Protest kiritgani haqida manfaatdor shaxslar, shuningdek, mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachilari yoki qonuniy vakillariga xabar beriladi.

JPKning 497¹⁶-moddasida jinoyat ishlari ni sud apellyatsiya tartibida, 509⁶-moddasida kassatsiya tartibida, shuningdek, mazkur kodeksning 526-moddasida yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to'g'risidagi masalani sud tomonidan ko'rib chiqishda prokurorning ishtirok etishi majburiy hisoblanadi.

A. Tadjibayevaning fikricha, yangi ochilgan holatlarni tekshirish prokurorning qattiq nazoratidir. Aksincha bo'lishi ham mumkin emas, chunki amaliyotda yangi ochilgan holatlar munosabati bilan ish yuritishni qaytadan boshlash ko'p uchramaydi. Bu ish yuritishni qaytadan boshlash asoslarini puxta tekshirish va bunday asoslar qay tariqa tekshirilayotganini nazorat qilishni talab etadi [9, 181-b.].

Darhaqiqat, sud yuqori instansiyada qayta ko'rib chiqishda ishtirok etuvchi prokuratura organlari mansabdor shaxslari doirasi, asosan, qonun bo'yicha sud apellyatsiya, kassatsiya, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash to'g'risidagi protest kiritish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar doirasidan iborat. Protestni apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudlarida ko'rishga prokuror kelmay qolsa, ishni eshitish boshqa kunga qoldiriladi. Kiritilgan protestni ko'rib chiqish sanasi va vaqti haqida tegishli apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi prokurorga oldindan xabar beradi, deb belgilab qo'yilgan.

Prokuror shikoyat berilgan yoki protest kiritilgan hukm yoki ajrimning qonuniyligi va asoslanganligi bo'yicha protsess ishtirokchilarining tushuntirishlaridan so'ng o'z xulosasini beradi. Ushbu xulosada prokuror hukm yoki ajrimni kuchda qoldirish, uni bekor qilish yoki qisman o'zgartirish to'g'risida o'z fikrini bayon qiladi.

JPKning 497⁹-moddasiga ko'ra, sud quyi-dagicha apellyatsiya shikoyati, protestiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritishi mumkin:

apellyatsiya shikoyati (protesti) bergan shaxs apellyatsiya instansiyasi sudining majlisi boshlanguniga qadar uni o'zgartirish yoki yangi vajlar bilan to'ldirishga haqli;

hukm ustidan shikoyat (protest) berish muddati o'tganidan keyin berilgan apellyatsiya protestiga, jabrlanuvchi yoki uning vakilining apellyatsiya shikoyatiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritishda mahkumning ahvolini og'irlashtirish to'g'risidagi masala, agar bunday talab dastlabki shikoyatda, protestda mavjud bo'lmasa, qo'yilishi mumkin emas;

hukm ustidan shikoyat qilish muddati o'tganidan keyin ishga kirishgan himoyachi apellyatsiya shikoyatini o'zgartirishi yoki uni yangi vajlar bilan to'ldirishi, ilgari ishda ishtirok etgan himoyachi tomonidan berilgan shikoyat vajlariga qo'shimcha asoslar taqdim etishi mumkin.

Mazkur kodeksning 509²-moddasiga ko'ra, kassatsiya shikoyati, protesti bergan shaxs kassatsiya instansiyasi sudi majlisi boshlanguniga qadar uni o'zgartirish yoki yangi vajlar bilan to'ldirishga haqli.

Kassatsiya protestiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish, jabrlanuvchi yoki uning vakilining kassatsiya shikoyatiga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish chog'ida mahkumning ahvolini og'irlashtirish to'g'risidagi masala, agar bunday talab dastlabki kassatsiya shikoyatida, protestida ko'rsatilmagan bo'lsa, qo'yilishi mumkin emas.

JPKning 524-moddasiga muvofiq, mahkum, oqlangan shaxs, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari, jabrlanuvchi hamda uning vakili kassatsiya instansiyasi sudiga yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risida iltimosnoma berishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar kassatsiya instansiyasi sudiga yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risida protest berishga haqli. Yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qo'zg'atish to'g'risida sudga protest kiritish uchun quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

1) fuqarolarning, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari mansabdor shaxslarining xabarlar;

2) ommaviy axborot vositalarining xabarlar;

3) surishtiruv, dastlabki tergov jarayoni va sudga boshqa jinoyat ishini ko'rish jarayonida olingan ma'lumotlar.

Agar sudga kelib tushgan iltimosnomada, protestda ushbu kodeksning 522-moddasi uchinchi qismining 1-3-bandlarida nazarda tutilgan holatlarni ko'rsatuvchi ma'lumotlarga havola mavjud bo'lsa, sudya surishtiruv, tergov organlari va suddan tegishli protsessual hujjatlarni talab qilib oladi hamda asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash yoki bunday asoslar mavjud emasligi haqidagi masalani o'z ajrimi bilan kassatsiya instansiyasi sudida ko'rib chiqish uchun kiritadi.

Agar sudga kelib tushgan iltimosnomada ushbu kodeksning 522-moddasi uchinchi qismi 4-bandida ko'rsatilgan holatlar ko'rsatilgan bo'lsa, sud materiallarni tergov o'tkazish uchun prokurorga yuborish to'g'risida ajrim chiqaradi. Yangi ochilgan holatlar tergov qilinayotganda, ushbu kodeksda nazarda tutilgan qoidalarga rioya etilgan holda so'roq, ko'zdan kechirish, ekspertiza, olib qo'yish va boshqa tergov harakatlari o'tkazilishi mumkin. Tergov natijalari bo'yicha prokuror uch oylik muddatda sudga yangi ochilgan holatlar tufayli sud hukmi, ajrimini qayta ko'rish uchun asoslar mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida tegishli materiallarni ilova qilgan holda xulosa yuboradi.

Prokurorning xulosasini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha sudya o'z ajrimi bilan yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash yoki bunday asoslar mavjud emasligi haqidagi masalani kassatsiya instansiyasi sudida ko'rib chiqish uchun kiritadi.

Sudyaning yangi ochilgan holatlar tufayli ish yuritishni qaytadan boshlash uchun asoslar mavjud emasligi to'g'risidagi ajrimi manfaatdor shaxslarning shikoyatiga ko'ra yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosarlarining protestiga ko'ra, materiallarni kassatsiya instansiyasi sudiga ko'rib chiqish uchun o'tkazgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki uning o'rinbosarlari tomonidan bekor qilinishi mumkin.

O'z navbatida, kassatsiya tartibida takroran qayta ko'rish quyi turuvchi sudlarning chiqargan qarorlariga nisbatan e'tiroz bildirish va qonunga muvofiqligini ta'minlash borasida kiritiladigan protest berish va uning ko'rib chiqilishi shartligi haqidagi zaruratda namoyon bo'ladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, kodeksning 509-moddasiga muvofiq, "kassatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, Bosh prokurori va ularning o'rinbosarlarining ushbu kodeksning 497-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra kiritgan kassatsiya protesti bo'yicha kassatsiya tartibida takroran ko'radi", deb belgilanishi natijasida qonun bo'yicha shikoyat berish huquqiga ega bo'lgan protsess ishtirokchilarining kassatsiya tartibida takroran ko'rish uchun beradigan shikoyati yuqori turuvchi sud tomonidan sud muhokamasida, albatta, ko'rib chiqilishi shartligi belgilanmaganligi ular tomonidan ko'rilyotgan kassatsiya tartibidagi shikoyatlarni yana bir bosqichda ko'rib, qonuniyligini ta'minlash imkoniyatidan mahrum etmoqda. Shu asnoda apellyatsiya va kassatsiya instansiya sudlari aynan bir instansiyada, bir rahbar shaxsning nazoratidagi bir sudning o'zida sudyalarning bir-birining yo'l qo'ygan xatosini o'zaro yashirish doirasida qolib ketishi va natijada ba'zi g'ayriqonuniy, asoslantirilmagan va adolatsiz qarorlarning o'z kuchida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Bizning fikrimizcha, apellyatsiya va kassatsiya tartibida ish yuritish tizimi quyidagicha joriy qilinishi lozim:

1. Birinchi instansiyada ko'rilgan ishlar viloyat va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqiladi. Bunda:

- hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar 20 (yigirma) kun mobaynida berilgan shikoyat yoki protest apellyatsiya tartibida sudlov hay'atida 3 nafar sudyadan iborat tarkibda to'liq sud tergov o'tkazish vakolati asosida;

- hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng (20 kundan keyin) berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha sudlov hay'atida kassatsiya tartibida uch nafar sudyadan iborat tarkibda qisman sud tergov o'tkazish huquqi asosida;

- apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha berilgan shikoyat yoki protest bo'yicha kassatsiya instansiya sudi *taftish (revizion)* tartibida viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar rayosatida uch nafar sudyadan iborat tarkibda qisman sud tergov o'tkazish vakolati asosida ko'rib chiqiladi.

2. Apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida berilgan shikoyat (protest)lar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atida 3 nafar sudyadan iborat tarkibda, qisman sud tergov o'tkazish vakolati asosida ko'rib chiqiladi.

Bunda apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ishlarni bekor qilib, birinchi instansiya-ga yangitdan ko'rish uchun yuborish vakolati berilmaydi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi yoki Bosh prokurori va ularning o'rinbosarlari protestiga asosan, kassatsiya instansiya sudi *taftish (revizion)* tartibida to'la hajmda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatida qayta ko'rib, yakuniy qaror qabul qilinadi.

Xulosalar

Mazkur o'zgarishning kiritilishi har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlash orqali konstitutsiyaviy normalarning amalda to'g'ri va samarali tatbiq qilinishiga xizmat qilgan bo'lar edi.

Zero, sud qarorlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rish konstitutsiyaviy-huquqiy tartibi va uning bosqichlarining protsessual jihatdan mustahkamlanishi mazkur institut oldida turgan vazifalarni samarali hal qilishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, sud-huquq tizimini isloh etishda jinoyat-protsessual qonunchilikda nazarda tutilgan sud qarorlarini qayta ko'rish bosqichlarini takomillashtirish quyidagi

instansiya sudlari tomonidan hukm, ajrim va qarorlar chiqarilishida jinoyat-protsessual qonunchilik normalarini amalda to'g'ri qo'llash uchun xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Review of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Revised and completed 2nd ed. Tashkent, Uzbekistan Publ., 2013, p. 167.
2. Explanatory Dictionary of Uzbek legal terms. Tashkent, Lesson press, 2021, p. 412.
3. Alikulov T. Russko-uzbekskiy uchebnyy slovar' [Russian-Uzbek educational dictionary]. 5000 words. Moscow, Russian, 1982, p. 191.
4. Legal encyclopedia. Ed. U. Tadzhihonov. Tashkent, Sharq Publ., 2001, p. 371.
5. Polatov B. An important way to control. *Life and law*, 2001, no. 4, p. 40.
6. To'xtasheva U.A., Vaxobov D.D. Sud xatolarini aniqlash va bartaraf qilish yuzasidan yuqori turuvchi instansiya sudlari vakolatlari [Powers of the courts of higher instance on the detection and elimination of judicial errors]. Scientific-Practical Treatise. Tashkent, 2016, pp. 20–21.
7. Kovtun N.N. Criminal process of Russia. Moscow, Yurayt Publ., 2003, p. 653.
8. Po'latov B. Adolat – prokuror nazoratining mezonlari [Justice is a criterion for prosecutorial supervision]. *Life and Law*, 2002, no. 2, p. 58.
9. Tadjiboyeva A.Y. Digitization of the activities of the courts. Proceedings of the International scientific and practical conference on current and future tasks. Tashkent, TSUL, 2022, p. 181.
10. New Approaches to Criminal Trials. The Report of the Chief Justice's Advisory Committee on Criminal Trials in the Superior Court of Justice, May, 2006. Available at: <https://www.ontariocourts.ca/scj/news/publications/ctr/>.
11. Guide on Article 6 of the European Convention on Human Rights. Right to a fair trial. Updated on 31 August 2022. Council of Europe/European Court of Human Rights, 2022. Available at: https://www.echr.coe.int/documents/guide_art_6_criminal_eng.pdf/.
12. Caminker E.H. Why Must Inferior Courts Obey Superior Court Precedents? *Stanford Law Review*, 1994, vol. 46, no. 4, pp. 817–873. JSTOR. DOI: 10.2307/1229094/.
13. Duff P. The limitations on trial by jury. *Revue Internationale de Droit Pénal*, 2001, no. 1-2, vol. 72, pp. 603–609. DOI: 10.3917/ridp.721.0603/. Available at: <https://www.cairn.info/revue-internationale-de-droit-penal-2001-1-page-603.htm/>.
14. Nowotko P.M. AI in judicial application of law and the right to a court. *Procedia Computer Science*, 2021, vol. 192, pp. 2220–2228. ISSN 1877-0509. DOI: 10.1016/j.procs.2021.08.235/. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050921017324/>.
15. Kuchkarov K., Nurullayev A. Nekotoryye aspekty sovershenstvovaniya nadzornogo proizvodstva v ugolovnom protsesse [Some Aspects of Improving Supervisory Proceedings in Criminal Procedure]. *Society and Innovations*, 2020, vol. 1 (1/s), pp. 523–531. DOI: 10.47689/2181-1415-vol1-iss1/s-pp523-531/.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

MAXSUS SON

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.b.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 30.12.2022-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 15,11 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 179.

TDYU tipografiyasida chop etildi.